

TIL MILLAT KO'ZGUSI, MILLAT RUHIDIR!

ILM OLMOQQAINTILISH HAD BIR MUSLIM VA MUSLIMA UCHUN FARZDIR!

Kun hikmati

Qiyin yo'llar doim go'zal joylarga olib boradi.



ZIYO CHASHMASI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI GAZETASI

30.10.2023 № 7 (312) ISSN-2010-9393 ziyo-chashmasi@mail.uz 1993-yil 21-martdan chiqa boshlagan

21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI



QABRING BALAND BO'LSIN

ONA TILIM!

Til - millatning ruhi, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy bebaho boyligidir. Tilning rivojlanishi jamiyat hayoti, tarqiqiyoti bilan bevosita bog'liq va undagi o'zgarishlar, albatta, tilda ham o'z aksini ifoda etadi. Aytish joizki, 1989-yil 21-oktabr kuni ona tilimizga davlat tili maqomini berilishi mustaqillik sari go'yilgan ilk qadamlardan biri bo'ldi.

Mana, 34 yildiki, ushbu sana mamlakatimizda bayram sifatida keng nishonlab kechinmoqda. Jumladan, universitetimizda "Qadring baland bo'lsin, ona tilim" mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirida universitet rektori, prof. Sh.Sharipov barchani bayram bilan qutladi. Rektor nutqida universitetga Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ilk bor chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" (lotin alifbosida, 6 jildlik),

"O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati", "O'zbek tilining katta imlo lug'ati", "O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati" keldirilganligini va bunday lug'atlarning ilm-fan rivojida ahamiyati beqiyos ekanligini aytib o'tdi. Shundan so'ng bayramoldi tashkil etilgan tanlov g'oliblariga esdalik sovg'alarini topshirdi.

Bayramda o'zbek tili madhiga bag'ishlangan she'rlar, kuy-qo'shiqlar, sahna asarlari iyo etildi. Bayram qiziqarli tarzda o'tdi va barcha qatnashohlarda katta taassurot qoldirdi.



"YOSHLAR KUNI" FORUMIDA IQTIDORLI YOSHLAR JAM BO'LDI

Universitetimizda "Kreativ ta'lim va innovatsiyalar - Yangi O'zbekiston tarqiqiyotining asosi" shiori ostida "InnoWeek.UZ-2023" xalqaro innovatsion g'oyalari haftaligi doirasida "Yoshlar kuni" forumi o'tkazildi.

Tadbirida vloyatimizdagi oliy ta'lim muassasalaridan iqtidorli yoshlar ko'rgazmali chiqishlari bilan ishtirok etishdi. Forumda shuningdek, tabiiy fanlar fakulteti tomonidan g'ul ko'chat yetishtirish usulblari namoyish etildi. Jizzax politehnika instituti tomonidan taqdim etilgan loyihada quyosh panellarini ishlab chiqish ko'rsatib berildi. Ushbu forum doirasida universitetimiz fakultetlari va bo'limlari 15 ga yaqin tashkilot va korxonalar bilan shartnomalar imzoladi.

Universitet stipendiyalari "Talabalar akademiyasi" a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yetukligi, pedagogika sphasini rivojlantirish yo'lidagi innovatsion g'oyalarni tatbiq etishdagi samarali ijodi, san'at va sport sphasidagi ulkan yutuqlarini rag'batlantiruvchi muvofiqdirlar. Stipendiya "Talabalar akademiyasi" a'zolarining universitet miqyosida erishgan eng yuqori natijasi va yutuqi sifatida e'tirof etiladi.

Stipendiya belgilangan o'quv yilning yakuniga qadar har oyida top'lab beriladigan top'lov bo'lib, stipendiyaning bir oylik summasi bazaviy stipendiyaning bir barbari miqdorida belgilanadi. Stipendiya talabgorlar universitet "Talabalar akademiyasi" a'zolari prasidan fakultetlar kesimida bir nafardan saralab olinadi. Universitet stipendiyasi "Talabalar akademiyasi" a'zolarining ilmiy-ijodiy izlanishlari, ratsionalizatorlik takliflari, ilmiy innovatsion ishlanmalari, xpriqiy tilni bilish darajasi, respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlardagi muvaffaqiyatlari, umumta'lim maktablari va mahallalarda olib borilgan volontyoriylik harakatlari hamda boshqa yutuqlarini inobatga olingan holda tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Universitet stipendiyalari jamoat va ilm-fan namyondalari shuningdek, universitet rivojiga hissa qo'shgan olimlar nomi bilan yuritiladi.

Universitet stipendiyalari "Talabalar akademiyasi" a'zolarining ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida universitet Kengashining 2022-yil 30-avgustdagi majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

TANISHING!

— "UNIVERSITET STIPENDIYA"SI SOHIBLARI



Bahrom Toshmurodov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Diniy QODIROV, kashfiyot va ta'lim g'olibi talabasi.



Madammaso Mamadazimova nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Sulaym URINBOYEVA, shi'riy (dona va g'ulxonalar) g'olibi talabasi.



Dadashev Bag'larov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Marjona XUDOYOROVA, xalqaro va xalqaro g'olibi talabasi.



Ravshan Abdumalikov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Zoya YUSUPOVA, jamiyat madaniyati g'olibi talabasi.



No'mat Almov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Gulnara MUXAMMADOYEVA, matematika va informatika g'olibi talabasi.



Bozorboy O'rinboev nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Sana ISHMOHAMMADOYEVA, o'zbek tili va adabiyoti g'olibi talabasi.



Bahrom Mamajonov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Yulduz ABUSATTOROVA, matematika va ta'lim g'olibi talabasi.



Sodiq Nishonov nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Fozila MUXAMMADOYEVA, biologiya g'olibi talabasi.



Hamid Olimjon nomi universitet stipendiyasi tanlovi g'olibi
Nasolma AKBAROVA, xalqaro madaniyati g'olibi talabasi.

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI

TA'LIM RIVOJIDA IMKONIYATLAR KENGAYMOQDA



Har bir mamlakatning taraqqiyoti, uning gullab-yashnashi jamiyatda ilm-fanning rivojiga bevosita bog'liq. Fan yutuqlari nafaqat ijtimoiy hayotimizni, balki butun sivilizatsiya taqdirini belgilab beradi. Albatta, bularning yaratuvchisi birinchi navbatda ustozdir. Shu sababli ham mamlakatimizda ularning munosib hayot kechirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifati va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator maqsadlar belgilab olindi. Strategiyaning "Har bir insonga o'z salohiyatini to'liq yolg'ib chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish", deb nomlangan birinchi maqsadida maktabgacha va xalq ta'limi, oliy ta'lim tizimida bo'lishi kutilayotgan o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur yo'naltirishda kelgusida o'qituvchilarning o'rtacha ish haqqini ikki barabarga oshirish, 500 ming nafar pedagog xodimlarni malaka-tajribasini yuksaltirib borish, 1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarga stajirovkaga yuborish maqsad qilingan. Shu bilan birga, kelgusi yetti yilda yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash nazarda tutilmoqda. Bunda 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqqini o'rtacha 2 barabarga oshirish, ilmiy, amaliy,

Innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, stajor-tadqiqotchilik, tajanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish belgilangan. Albatta, yosh tadqiqotchilarga yaratilayotgan bunday imkoniyatlar professional ta'lim tizimini oldingi marhalarga olib chiqadi.

Qarorda yana bir muhim masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Bir e'maski, bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassasalarining oldida turgan eng oliy vazifalardan biri xorij bilan aloqalarni yo'lga qo'yish bo'lmoqda. Bunda xorij tajribasi asosida raqobatsizlik kadrilar yetishtirish maqsad qilinayapti. Demaqchi bo'lganimiz, "O'zbekiston-2030" strategiyasida bu yo'naltirishda ham vazifalar belgilangan. Yani, unga ko'ra "Top-500" talikka kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "Ikkita diplomli tizim" joriy etish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, 30 ta oliy

ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditsatsiyadan o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlash joziki, strategiya o'z ichiga oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy-boshqaruvi faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy texnik ta'minotini mustahkamlash kabi vazifalarni ham belgilagan. Jumladan, 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish, qo'shimcha 120 ming o'rinni o'quv binolari hamda 150 ming o'rinni talabalar turar joylarini qurish, kutubxonalarini kamida 1 millionta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondlarini to'liq raqamlashtirish ko'zda tutilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, ilm-fan shiddat bilan rivojlanayotgan jahon maydonida o'z o'rini o'zini topishimiz bugun tayyorlayotgan mutaxassislarining ilm-u salohiyati va tajribasiga ko'p jihattan bog'liq. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur hujjatni yurtimizda inson manfaatlarini ta'minlash, ta'lim rivoji yo'lida yangi imkoniyatlar yaratish borasida yana bir dadil qadam deyish mumkin.

ARTUR QORYOG'DIYEV,
universitet bosh hisobchisi.

Barchamizga ma'lumki, endi dunyoga kelgan chagalog kuniar o'tgan sayin o'zgarib boradi. Shunday ekan, vaqt ham o'tgan sayin nimalardir yangilanib, nimalardir unutilib boradi. Bu hayot haqiqati...

O'tmishga nazar solsak, o'zbek ayollari boshda ro'mol, uzun ko'ylak kiyib o'zbekona milliy liboslari bilan ajralib turgan. Xo'sh, endi-chi? Endi zamon o'zgarib liboslarimiz ham kiyim siyohi bo'lmagan kiyimlarga o'rinni bo'shatib berdimi? Hayron qolasan kishi! Bu quyosh oyga o'rinni bo'shatib bergandek go'yo. Ba'zan o'zbek ayollarini boshqa millat ayollaridan ajrata olmayapmiz.

Bu kimdan saboq olish-u kimga o'mak bo'lish?

OYNADAGI AKS



O'zbek ayoli timsolini o'zida mujassamlashtirgan liboslar madaniyat belgisi, ibonig boshlanishidir. Afsuski, urf-odadlarimiz hozirgi kunda qishloqdagina saqlanib qolmoqda deb bemalol ayta olmaymiz. Sababi qishloq qizlari ham shaharda o'zlaridan boshqa inson yasab o'lmoqda. Milliy kiyimlar ularning go'zalligiga salbiy ta'sir qilayotgandek o'chiq-sochiq kiyinishadi.

Kiyimga qarab baho berish qizlar o'rtasida muhim vazifaga aylangan. Axir inson bolasi narsa emas-ki, unga qarab baho bera, u jonzotidan ibod, lymoni bilan imtiyozli bo'luvchi zotdir. Shu kunlarda "moda"ga aylangan kiyimlar, uni libosiga aylantirgan insonlar lymon deb nomlangan shikni ohganda ko'rinish qo'lyapti. Bu nimadan dalolatligini hech o'ylab ko'rdikmi?

E'tibor bersak, ro'mol o'ragan onalarimiz shu qadar chiroyliki, bu tabiiy go'zallikdir. Dunyoda tengsiz, nomi abadiy onalarimizdan o'mak o'ylaylik, ulardek bo'lishga intilaylik. Zero oynadagi aksimiz o'zbek ayoli timsolini gavalantirsin.

Shaxnpxa MENGLIYEVA
o'zbek tili va adabiyoti sirtqi ta'lim
yo'nalishi talabasi.

SAHNA UCHUN

Qadim-qadim zamonda bir zplim shoh bir mamlakatni qo'lga qilibdi. Mazlum shohga shartlarini birin-ketin bayon qilibdi, maqsadini ayon qilibdi. Mazlum shoh. Yurtimga bostirib kelding. Xalгимga zulm qilding. Boisi ne? Maqsading nima? Bizdan nima istaysan?



Zplim shoh. O'z tilingni unutasan. Mening tilimda so'zlaysan. Maqsadim shu! Onalaring alla aytain mening tilimda, Baxshilaring doston aytain mening tilimda, Shoirilaring she'r to'qlain mening tilimda, O'limlaring fikr qilain mening tilimda, Bolalarning tili chiqsin mening tilimda, El-u xalqing so'zlashinlar mening tilimda, Otalaring hikmat aytain mening tilimda, Onalaring ertak aytain mening tilimda! Mazlum shoh. Bo'ldi! Bas! Yetar. Zulming oshdi. So'ra jonimni, so'ra mol-u mulkim, xonumonimni. Ammo tilimni emas. Zplim shoh. (Baqirib kuladi) Juda soz ma'qul bo'ldi bu gaplaring ham. Gar tilingdan kechmasang boshqa shartim bor. Eshit. Xazinangni hammasini tortiq qilasan! Xazinabon. Shohim, men xazinabonning so'zin eshitgim. Xazinangni to'liq bersang, xalqing och qolar. Mazlum shoh. Och qolsa, mehnat qilib rizain topadi. Ammo tili yo'qotsak, xalq yo'qoladi, milliat o'ladi. Zplim shoh. (Kuladi) Yana bir shart. Menga berasan

ONA TILIM BOR EKAN, SHODON YASHAYMAN!

barcha bog'ingni.

Vazir. Shohim, eshit dono vazir so'zlarin. Bog'ni bersak, mevalarni bergan bo'lamiz. Unday bo'lsa, xalqimizni och qoldiramiz.

Mazlum shoh. Tili bersak, uni o'ldirsak, xalqimizni bergan bo'lamiz. Tilimizni yo'qotsak, ma'naviyatimiz so'nadi, qadriyatlarimiz o'ladi. Tariximiz, bugunimiz yo'qoladi, palagimiz so'ladi, lildimiz quriydi.

Zplim shoh. (Qattiqroq kuladi) Ancha donishmandsan. Fikring ham teran. Bir go'zal qizing bor. Shu bilan berasan, meni kuyov qilasan.

Mazlum shoh. Roziman.

Mazlum shohning xptini. Yo'q, bu zolim shohga qizimni bermayman! Gulday qizimning umrini xazon qilamayman!

Malika. Onajonim, tunlari bedor bo'lib, menga alla aytgan, volldayi muhtaramim. Otam roz ekan, men ham roziman. Shu zolim bilan birga ketaman.

Mazlum shohning xptini. Qizim, mening quvonchim, baxtim, hayotim, o'zingni o'tpa tashlama, meni qablim q'ashlama.

Malika. Onajonim, sen so'zlayotgan bu til mening ruhimga, vujudimga sening allalaring, mehring, tafting bilan singdi. Bu mening tilim, onamning tili, otamning tili, bobomning tili, momomning tili, men uni sevaman, sizlarni sevgan kabi. Unda xalqimning nafasi, mehri bor, unda vatanimning issiq tafi bor. Bu til menga ota-bobomdan me'ros, maqsadim avlodlarga yetkazish omon.

Shu tilda bilim chiqdi, shu tilda ruhim uyg'aydi. Shu tilda fikradim, aqlli bo'ldim. Shu tilda bilim oldim, shu tilda engladim borliqni. Bu til mening o'zim, o'zligim, borlig'im. Undan voz kechmoq ruhimni, o'zligimni yo'qotmaktir. Men istayman bilim barhayot bo'lsin! O'z tilda kuylasin xalqim allasin! O'z tilda kuylasin xalqim yallasin! O'z tilda she'r to'qlain shohim! O'z tilda kitob yozsin olimlarim! O'z tilda hikmat aytain bobolarim! O'z tilda ertak aytain momolarim! O'z tilda so'zlashinlar ona xalqim! Ona tilim bor ekan, kuylayman shodon. Ona tilim yo'qolsa, bo'lurman nodon. Mazlum shoh. Sharting tamom bo'ldimi, zolim? Zolim shoh qattiq kulib chiqib ketadi. Malika ortidan ketadi.

Mazlum shohning xptini (Malikaning ortidan yig'lab chiqadi) Qizim!

Mazlum shoh. (Xazinabon va vazirga qarata) Shu aziz tilimizda millatimizning ruhiyati, tafakkuri, ma'naviyati, ma'rifati, madaniyati, tarixi yashaydi. Tilimizni saramoq shu tilda yaratilgan barcha me'rosimizni sarab qilmog'dir. Til insonlarni ruhan, qalban birilashdirib turadi. Tilga muhabbat, el-u yurtga muhabbatdir.

Feruxa JUMAYEVA,
o'zbek tili va adabiyoti metodikasi kafedrasida
dotsenti, f.f.f.d (PhD).



SHAYTON TILGA KIRSA..

2023-yilning 29-oktabri. Soat 23:44. Shu vaqtda Farhodning ichida "Shayton tilga kirganda nima hodisa yuz berardi", degan savol tug'ildi. U uzog o'yladi. Savoliga javob topolmagach, taqdirga tan berib uxlab qoldi. Va qarangki, u tushida inson qiyofasidagi shaytonni uchratdi.

Shayton barglari to'kilib qurly boshlagan daraxtning ostida, qorong'u bir joyda turardi. Farhodning nazarida bu kelajak olam edi.

Shayton shu qorong'ulikda atrofga hayron bo'lgan holda angrayib, yurib ketayotgan emish. Uni yo'qotib qo'yimaslik uchun

Farhod ortidan borar edi. Shayton birdan ko'zidan yo'qoldi. Shu payt Farhodning yetkasiga kimningdir qo'lli tegdi. Bu inson qiyofasidagi shayton edi.

- Xo'sh nima uchun meni kuzatayotgan? - Jiddiy turgan holda so'radi shayton.
- Nimagaki sen shaytonsan va menga seni shayton ekanliging a'yon bo'ldi.
- Judayam yaxshi. Xo'sh endi nima qilmoqchisan, hammaga aytasanmi meni shaytonligimni?
- Seni bu yerda yurishdan maqsadning nima? - Saigina dovdirab so'radi Farhod.
- Bilmasang bilib qo'y, sizlar yaratilgandan beri mening qonunlarimga bo'yusib yashaysizlar. Ammo sizlar yaqin yillar ichida mening qonunlarimni buzdinglar va mening ishimni tortib oldinglar. Shundan so'ng, odam qiyofasiga kirishga majbur bo'ldim. Nega deganda shayton qiyofasida menga hech qanday ish qolmadi. Insonlar men o'ringizdandan ham ko'proq yomonliklar qilishga qodir ekan. Oldinlari erkaklarga nomahram ayollarga tajovuz qilishni buyurardim. Hozir esa hech qanday buyrug'imsiz, allaqachon nevarasi bor insonlar ham og'izidan ona sutining hidi ketmagan qizlarga tajovuz qilishmoqda. Avvallari men ochiq kiyingan qizlarni yomon yo'lga boshlardim. Hozir esa, ba'zi qizlar ro'mol o'rab, undan ham yomon yo'llarda yurmoqdalar. Sizlar qilgan gunohlaringizni shu darajada mohirona yashirayotdiki, uni umringiz oxirigacha o'zingizdan boshqa hech kim bilmaydi. Men shayton emas odam ko'rinishida yashashni boshladim. Sababi men odam ko'rinishida, shayton ko'rinishida qilgan yomonliklarimdan ham ko'proq yomonliklar qila olar ekanman. Sizlar shu darajada ikkiyuzlamachilazdiki, men yomon yo'lga boshlay olmagani insonlarni tirlikki payti ko'nglarga ko'tarib, vafot etganidan so'ng bemalol sahnaga chiqib qoralaysizlar. Men shayton bo'lib turib, bunday insonlardan dars oldim va endi o'zimni inson qiyofasida sinab ko'rmoqchiman.
- Seningcha men ham shundaymanmi? - ko'zida yosh bilan so'radi Farhod.
- Men shaytonman xudo emas, ammo istasang, sen bilan birga ko'proq yomonliklar qila olamiz.

Farhod atrofga qaradi va ko'ziga ko'ringan birinchi toshni olib shaytonni yuziga qarab otdi. Afuski, tosh shaytonga tegmasdan turib u uyqusidan uyg'onib ketdi. Unga bu hodisa tush emas yaqinda sodir bo'ladigan voqealar zaminida ko'rindi. Eng muhimi Farhod o'zini qiyogani "shayton tilga kirganda nima hodisa yuz berardi", degan savoliga javob topdi.

Istifdiypr HUSANBAYEV,
rus tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

CHIRCHIQDAN MAKTUB

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT HIMOYACHILARI

Ziyoli qatlam deganda, odatda oliy ma'lumot olgan, boshqalarga qaraganda o'zining bilim saviyasi, tarbiyaviy salohiyati bilan ajralib turuvchi, yaxshi ishlarga chorlovchi, o'qimishni insonlarni tushunamiz. Bu qatlam vakillari har makon va zamonda diqqat markazida bo'lishgan. Bugun ham shunday.

O'qituvchi jamiyatning ziyoli qatлами bo'lishi bilan birgalikda xalq bolalarini, millatning ertangi kelajagini tarbiyalovchi ma'naviyat va ma'rifat himoyachisi hamdir. O'qituvchining shaxs sifatida, kundalik hayotida amalga oshiradigan barcha ishlari jamoa a'zolariga, mahallaga, boriniki, boshqalar uchun namuna bo'lishi kerak deb o'ylaymiz. Bu nuqtal nazar bugun qay darajada o'zini oqalamoqda? Ziddiyatli munozara va muhokamalarga boy bo'lib borayotgan bugungi shiddatli kun o'qituvchining ruhiyatiga, psixologiyasiga, hattoki faoliyatiga ham o'zining aks ta'sirini ko'rsatmoqda. O'qituvchining o'quvchini urgani yoki ot-onalari bilan bog'liq bo'lgan muammolari aks etgan materiallar ijtimoiy tarmoqlarda tezlik bilan tarqamoqda, tarqatishmoqda. Bu esa albatta ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

xatolarni qilish u yodda tursin, kichik, hamma qiladigan xatolarga yo'l qo'ysa ham boshqacha nazar bilan qaralmoqda. Bu haqiqatni inkor etib bo'lmaydi. Bir necha o'qituvchi-pedagoglarning o'zlarini kuzatgan, o'z ham kelajakda pedagog bo'ladigan yosh sifatida aytib olamanki, bunday holatlar bizni ham tashvishlantirmoqda. To'g'risini aytish kerak, o'qituvchi-pedagoglarning ba'zilarida oliyvi nizolar, ajrimlar bor. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh kabi holatlar kishi ko'nglini odatladi.

Odatda, muammo ko'tarilganda unga yechim beriladi. So'zimizni qisqaroq qilishga harakat qilamiz. Bizningcha, o'qituvchi-pedagoglar qilgan xatoni takrorlamaslikka, kamchiliklariga ko'z jumb, o'qituvchilarni jamiyatning ziyoli qatلامي sifatida ko'rishni davom etishi kerak.

Diyorbek TURGUNPO'LATOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti talabasi.

Yer yuzida davlat va jamiyat paydo bo'lganidan buyon odamzod poraxo'rlik va korrupsiyani taraqqiyot va farovonlikning kushandasi, jamiyatda adolat, tenglik, sog'lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo'lishiga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan va unga qarshi kurashib yashagan.

ADOLAT VA QONUN USTUVOR JAMIYATDA KORRUPSIYAGA O'RIN BO'LMAS!



KORRUPSIYASIZ TA'LIM

Bugungi kunda ko'pchilik odamlar korrupsiyani pora olish, pora berish va pora olish va berishda vositachilik qilish, deb tushunibadi. Aslida esa ulardan ham xavfliroq bo'lgan shaxslarning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarilishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari yo'llida harakatlari, xodimlarni pora va boshqa haq evaziga og'dirib olish harakatlariga ko'p e'tibor qaratilmaydi. Bular manfaatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi omillar hisoblanadi. Buning oqibatida jamiyatga va davlatga, shuningdek davlatlar orasidagi munosabatlarga katta shikast yetkazmoqda.

Aytish joziki, mamlakatimizda korrupsiya balosiga qarshi kurashish uchun muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 5-martdagi buyrug'iga asosan, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati vazirlik markaziy apparati, vazirlik huzuridagi markaziy, kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari, oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari rahbar-xodimlari, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida ishlab chiqildi.

Buyruqda vazirlik tarkibiy tuzilmalarida ishlaydigan xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga murosasiz munosabatini shakllantirish bo'yicha va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida xabaridorligini oshirishga qaratilgan tematik audio va videopoliklar hamda boshqa axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari o'tkazilishi keltirib o'tilgan. Shuningdek, buyruqning vazirlik va tarkibiy tuzilmalari xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun xizmat xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtirildi, ularning yozuvlari vazirlikning mas'ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishi aytib o'tilgan.

Mazkur buyruqqa asosan, bugungi kunda universitetimizda korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks nazorat" tizimini boshqarish bo'limi o'z faoliyatini

olib bormoqda.Bo'limimizning asosiy vazifalaridan biri o'liyoh miqyosida ta'magirlikka qarshi kurashish, unga nisbatan murosasizlik muhitini rivojlantirishdan iboratdir.

So'z o'rinda aytdi bo'ladigan bo'lsam, hozirda ayrim pedagog-xodimlar korrupsiyaga sabab bo'ladigan qonunlarni yaxshi bilmasligi, bu haqida xabardor emasligi ularning ish faoliyatida ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu sababl har bir ishga qabul qilinayotgan xodimdan vazirlik, ta'lim muassasasida belgilab qo'lgan normalar, nizomlar va lochi-tartib qoidalarni bilishi va unga amal qilishi belgilab qo'yligan.

Qonunchilikimizda korrupsiyaning oldini olishga bag'lanangan va e'tibor qaratilgan nozik joylari ham bor. Xususan, Jinoyat Kodeksi 241-moddasida jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat haqida aniq bilgan holda xabar bermaslikka ham tegishli tartibda choralar ko'rilishi aytib o'tilgan. Aniqroq aytganda, korrupsiya sodir bo'lganda uni yashirish ham qonun buzilishiga asos bo'ladi.

Universitet Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bilan tekzor bog'lanish maqsadida aloqa kanallarimiz ham mavjud, jumladan:

Ishonch telefon raqami
+998722263847
Anonim xabarlarini qabul qiluvchi telegram bot @jdpunktikorrbot
Elektron pochta jdpukn21@mail.ru
Bo'lim boshlig'ining nomeri
+998911973929
Bo'lim bosh mutaxassisining nomeri
+998332071999

Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talaba-yoshlar klubi ham tashkil etilgan bo'lib, klub O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan universitet qoshida jamoatchilik asosida tashkil etilgan.

Bo'limning ish faoliyatini yanada ochiqlash maqsadida telegram guruh(https://t.me/+56EXmsJ8iO20Tiy) ham shakllantirilgan bo'lib, guruhda korrupsiya holatlar, bu bo'yicha qonunchilikda olib borilayotgan ishohar yoritilmoqda.

Doston BOSIMOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi.



А ВЕДЬ ПУШКИН БЫЛ ПРАВ

А ведь Пушкин был прав!
"Пройдет любовь, умрут желанья
Разлучит нас холодный свет
Кто вспомнит тайные свиданья
Мечты, восторги прежних лет?"

Ты сейчас о другом мечтаешь,
Не вспомнишь нас какими были,
Хотя о чем бы вспомнить?
Ведь и без меня ты очастлива.

А я! Я сижу о той одиночестве,
Придумавшая очастливого конца.
Чужую себя на дне океана,
Ищу свет, внутри себя

Утешаю себя о воспоминаниями,
О пройденных дней, и лет
Чуждал тебя, я так близко...
Но каждый раз, я проиграл

Но со временем я привык.
Привык думать только о себе.
И где то, в глубине сердца.
Сохранил имя, оставшее на миг.

Говорят, что всё в наших руках.
Но к сожалению это не так.
Есть определённые границы,
Тянись руку но никак не достать

Я тянул руку к солнцу степей,
Ты мое солнце, вдоль реки.
Которая никак достать, получить.
Я готов на всё.

Хочу прерватиток в перел в твоих объятиях,
Хоть во мне я очастлив.
С тобой, или без тебя.

А ведь Пушкин был прав
Мы любим тех, кто нас не любит
Мы любим тех, кто в нас влюблен.

Руслан САИДОВ,
студент факультета русского языка и
литературы.

MEN BO'LMASAM

Azoblarga bardosh berib,
Bo'xtonlarga kulib qo'yib,
Sotqinlarga oq yo'l tilab,
Kunlar kelar, men ketarman.

Ishonchsizlik bag'rim ezar,
G'iybatlarga sodd ketar,
Bag'rim tilib, bog'im kezar,
Kunlar kelar, men ketarman.

Shuncha azob balki yetar,
Dildagi dard qanday ketar,
Qo'lingizdan nalar kelar,
Kunlar kelar, men ketarman.

Gulandam NURALIYEVA,
boshlang'ich ta'lim fakulteti
talabasi.



BAXTGA TO'LAHIKYOYAMIZ

Yuragimga umid bergan go'zal baxtni,
Chiziqchalar-aks ettirmish kaftlarimga.
Sog'inch o'rtar birozgina ishqsiz dinni,
Yondirmagin, ishqning qaynoq taftlarida.

Yiroqdasan, balki yaqin masofamiz,
Qachonlardir baxtlashamiz, dil hamrohim.
Ancha oldin yozilgandi hikoyamiz,
Faqat unga sabab bo'lar duo, ohim.

Iffat o'yohan ko'zlarimga parda tortib,
Qaro gavhar, ko'z sohilim saqlar vafot.
Ammo bahor yuragimdan kurtaklarga,
O'tganida bermadimi senga jafot?

Ko'rishamiz, Erta yoki undan keyin,
Balki uzun yillar kerak to'qnashishga.
Ertangi kun kelmoqligi bizga tayin,
Va da bergin, erta bilan yo'qlashishga.

Bilman, Qanday salobatli yaratqisan?
Soching xuddi menikidek tim qoramiz?
Asosiy qaro-qaro sochlarimga,
Zulmat lohra yashatmagin, dilporamiz.

Necha-necha taqdiriami bitgan qalam,
Boshlab berdi baxtga to'la hikoyamiz.
Kelgin, mayli, ohista yur, ko'ngil shohim,
So'ngligacha nodir bo'lsin nihoyamiz.
Mehriniso ERGASHOVA,
boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi.



USTOZLARIM

Qanday ajab so'z – Umr!
Vaqtmi? Misli oqar suv.
Tanho oymi yo' quyosh,
Dedim: Ustoz beqiyos!

Nurli so'zlar nurga boshlar,
Nedur qissa, shogird derlar.
O'qi, izan topgin ziyo,
Ustoz misli imkon go'yo.

Siz-la go'zal hayot qurdim,
Maqsad qo'yib olga yurdim.
Yiqilsam-da tura bildim,
Mening nurli Ustozlarim!

Xalqim aytar ajab so'zlar,
Ustoz "ulug' ota", – derlar.
Ta'zim aylab shukrona ayt,
Seni Ustoz shogird derlar!
Shaxriyada MAXKAMBAYEVA,
xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
magistranti.

TALABALIK

Hali bu kunlarni sog'insak kerak,
Uyqusiz tunlarni, bedor kechani.
O'qish ilinjida qattiq nonlar yeb,
Uyqudan turilmay qolgan ertani.

Aniq sog'inamiz sevgan qizimiz,
U qizga uzodan qarashlarimiz,
Balki bilmagandir, balki bilgandir,
Bir boqqa bas edi, bizlar yonganimiz.

Go'zal davr ekan, kechroq angladik,
Vaqtimiz kam qo'pi, buni bilmadik,
Qadriga yetaylik davrini surib,
Yuraylik sho'x-shodon qaddimiz urib.
Shpurnopd KELDIYOROV,
matematika-informatika fakulteti
talabasi.

ONAJONIM

Onajonim, mening baxtim g'ururimsiz,
Omadiarim sababchisi sururimsiz.
Hayot deya atalmish mushkul yo'lda
Quyosh kabi porlaguvchi yulduzimsiz.

Ko'zlarimgiz doim baxtdan porlab turin,
Hayotingiz shirin-shakar nurga to'lin.
Farzandingiz baxtni ko'rib yurib,
Shodligingiz daryo kabi tengsiz bo'lsin.

Onajonim, dardlaringiz o'rin qoplolmaymiz,
Farzand bo'lib hujjaringiz angli olmaymiz.
Asl borligingiz o'z bir baxt,
Sizga rayhon-nargizlardan qurgaymiz taxt.

Marjona MUSAYEVA,
rus tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

VATAN QADRI

Vatan ilm-u ziyo makonisan sen,
Qadringni bilganlar jonini bergan
Vatan sabrining koshonasi sen
Chidading, dosh berding alamlarga sen.

Ummon kabi jo'laqin vatanning mehri
Hech bir go'dak bugun yetimman demas
Sabab, mungil ko'zlar endi yosh ko'rmas
Muhabbat nelligin vatan o'rgatdi.

Men kimni suyumgan vatandan boshqa
Yurtim meni olam bilmak o'rgatdi
Tiriklik bir nemat, anglamoq baxtdir
Olgan nafasimda vatan kuylatdi

"O'zbekiston", qanday jarang bilan eshitlar
Necha million aholini bag'riga olgan
Turli millat elat yashab tinch-totuv
Qoraqalpoq qizing mag'zuriga yurgan

Suyangan tog'imsan vatan sen mening
Ko'klarga bo'y cho'zsam yetar qo'llarim
O'zbekning bekligin chin sababkori
Yurtboshimga ta'zim riyayim bugun.

Dunyo bir dur bo'lsa, gavharin vatan,
Omon asra Robbim, har xil xavfardan
On uram tog'larga borib eshitlar,
Dildagi daftanim, oshyonim vatan.

Sevara DAVLETOVA,
matematika-informatika fakulteti
talabasi.



MUASSIS:
Abdulla
Qodiriy
nomidagi
Jizzax davlat
pedagogika
universiteti

Bosh muharrir:
Abdug'afur ABDURAHMONOV

Gazga "Ziyo" Foylag'chi
boshqaruvchisi 4-3 formatda
chop etildi.

Adedi: 3200. Buyurtma
№ _____

Boshqaruvchisi: 30.10.2023 • 9:00

Boshqaruvchi

O'ra Chiroq tumani,
"Ziyo" ko'chasida,
Markaz-1.

MANZIL:

Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi
4-uy, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosi.

Jizzax viloyat matbuot va axborot
boshqarmasida 2008-yil 20-oktabrda 06-
017 raqamli bilan ro'yxatga olingan.
Qilga bir marta chop etiladi.
Baholir erkin narxda.

Mas'ul muharrir: Abdulkarim SHARIPOV

Tehniyatga kelgan xatlar doimiy dastur
taborimizda bo'lgani sababli muallifga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri texniyat fikri sifatida qabul qilinmaydi
Kerak. Gazetadan ko'chirib boshqaruvchi texniyat
ruxsati bilan amalga oshiriladi.